



## ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING LINGVOKULTUROLOGIK VA SOTSIOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Shovxiyeva Ra'no Xudoyberdiyevna

Alfraganus universiteti magistranti

### Annotatsiya

Maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning lingvokulturologik va sotsiokulturologik kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy asoslari hamda amaliy mexanizmlari yoritilgan. Insonning til orqali madaniyatni anglashi, milliy qadriyatlarni tahlil qilish qobiliyati, kommunikativ vaziyatlarda madaniy kodlarni to'g'ri qo'llash jarayonlari o'rganiladi. Shuningdek, o'quvchilarda til – madaniyat munosabatini anglash kompetensiyasini shakllantirishda darslik, badiiy matnlar, interaktiv metodlar va ijtimoiy muhitning o'rni tahlil qilinadi.

### Annotation

This article explores the theoretical foundations and practical mechanisms for developing students' linguocultural and sociocultural competencies in mother tongue education. It examines how individuals comprehend culture through language, their ability to analyze national values, and the processes of correctly applying cultural codes in communicative situations. The study also analyzes the role of textbooks, literary texts, interactive methods, and the social environment in shaping learners' competence in understanding the relationship between language and culture.

### Аннотация

В статье раскрываются теоретические основы и практические механизмы формирования лингвокультурологических и социокультурологических компетенций учащихся в процессе преподавания родного языка. Исследуется процесс освоения человеком культуры через язык, способность анализировать национальные ценности и правильно применять культурные коды в коммуникативных ситуациях. Также рассматривается роль учебников, художественных текстов, интерактивных методов и



социального окружения в формировании у учащихся компетенции понимания взаимосвязи «язык — культура».

**Kalit soʻzlar:** lingvokulturologiya, sotsiokulturologik kompetensiya, ona tili taʼlimi, madaniy kod, milliy qadriyat, kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, badiiy matn, til va madaniyat munosabati, konseptual tahlil.

**Keywords:** linguoculturology, sociocultural competence, mother-tongue education, cultural code, national values, communicative competence, speech culture, literary text, language–culture relationship, conceptual analysis.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, социокультурная компетенция, обучение родному языку, культурный код, национальные ценности, коммуникативная компетенция, речевая культура, художественный текст, взаимосвязь языка и культуры, концептуальный анализ.

XXI asrda til taʼlimi endilikda faqat grammatik meʼyorlarni oʻrgatish bilan cheklanmaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuv oʻquvchilarning tilni madaniy hodisa sifatida anglashini, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni til vositasida idrok qilishi hamda jamiyat bilan samarali muloqotga kirishish kompetensiyalarini rivojlantirishni talab qiladi. Chunki til — bu shunchaki aloqa vositasi emas, balki millatning ruhiy olami, tarixiy xotirasi va maʼnaviy identitetini mujassamlashtirgan noyob madaniy koddir.

Til orqali avloddan-avlodga nafaqat lugʻaviy maʼlumot, balki dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy tajriba va ruhiy meros ham uzatiladi. Shu bois lisoniy bilimlar bilan bir qatorda oʻquvchilarda lingvokulturologik (til va madaniyat uygʻunligini anglash) va sotsiokulturologik (jamiyat, muloqot, madaniy xulq qoidalarini egallash) kompetensiyalarni shakllantirish bugungi ona tili taʼlimining ustuvor yoʻnalishiga aylandi.

Lingvokulturologiya oʻquvchilarni soʻzning orqasidagi maʼno dunyosini, xalq tafakkurining badiiy-ramziy qatlamlarini idrok etishga yetaklaydi. Masalan, “ona yurt”, “koʻngil”, “savob”, “or-nomus” kabi qadriyatga yoʻgʻrilgan birliklar shunchaki leksik birlik emas, balki xalqning axloqiy tamoyillari, tarixiy tajribasi va ruhiyatini ifodalaydi.

Sotsiokulturologik yondashuv esa til oʻrganuvchini madaniy muhitda toʻgʻri muloqot qilish, vaziyatga mos nutq shakllarini tanlash, ijtimoiy rollarni idrok etish kabi koʻnikmalarga ega qiladi. Chunonchi, kundalik muloqot, rasmiy muhit, katta-kichik bilan



muomala, ommaviy nutq madaniyati kabi yo'nalishlar o'quvchilarning hayotiy savodxonligini oshiradi.

Demak, ona tili ta'limida lingvokulturologik va sotsiokulturologik kompetensiyalarni shakllantirish — nafaqat til o'rgatish, balki shaxsni madaniy va ma'naviy jihatdan yuksaltirish, uni zamon talablari darajasida ijtimoiy faol inson qilib tarbiyalashning muhim omilidir.

Lingvokulturologiya til, madaniyat va milliy mentalitetning o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi zamonaviy fan sifatida ona tili ta'limining mazmunini tubdan boyitadi. Bu fan tilni faqat grammatik tizim emas, balki xalq ma'naviyati, qadriyati hamda tarixiy xotirasining eng yirik ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi. V.A.Maslova ta'kidlaganidek, *“til — bu millat madaniyatini ifoda etuvchi semiotik tizimdir”* [1,12-b.]. Ushbu yondashuv o'quvchilarga nafaqat til birliklarining ma'nosini, balki ularning ortidagi madaniy qatlamni anglashga yordam beradi.

Til xalq ma'naviyati, qadriyatlari, urf-odatlar va dunyoqarashining eng muhim aksidir. Masalan: “Ko'ngil” so'zi o'zbek madaniyatida insonning ichki dunyosi, mehr-oqibat, sezgirlik, halollik timsoli sifatida qo'llanadi. Uning ingliz tilidagi *“heart”* yoki *“soul”* ekvivalentlari bu ma'noni to'liq bera olmaydi. Bu lingvokulturologik tafovutning yorqin misolidir.

Shuningdek, o'zbek tilidagi “Baraka” tushunchasi o'zbekcha dunyoqarashda nafaqat moddiy ko'payish, balki rizqning halolligi, xayrning ziyoda bo'lishi kabi ruhiy ma'nolarni ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib, lingvokulturologik kompetensiya til birliklarining *bevosita lug'aviy ma'nosini emas, balki ularning madaniy semantikasini* anglashni talab qiladi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning milliy-madaniy kodlarni anglashlari ular nutqining mazmuniy boyligi va badiiy-estetik fikrini shakllantiradi. Bu jarayonda:

- frazeologizmlar;
- xalq og'zaki ijodiga oid birliklar;
- ramziy obrazlar;
- milliy qadriyatlarni ifodalovchi leksik birliklar asosiy o'rin tutadi.





Masalan, “ko‘z tegmasin”, “oq yo‘l”, “yuragi yorishmoq” kabi iboralar nafaqat til birligi, balki xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, N.A.Bagayevaning fikricha, lingvokulturologiya ta'lim jarayonida o'quvchini *“til va madaniyatning integrativ mohiyatini anglaydigan kompetent shaxs”* sifatida tarbiyalaydi [2,48-b.].

O'zbek tilidagi ko'plab so'zlar va obrazlar ramziy ma'noga ega. Xususan:

- oq rang — poklik, halollik, ezgulik;
- Suv — hayot, poklanish, baraka;
- Daraxt — avlod, ildiz, sadoqat;
- Ona zamin — Vatan, mehr, muqaddaslik timsoli.

Bunday ramzlar o'quvchilarga lingvokulturologik tahlil yordamida tushuntirilganda, ular tilni faqat o'rganmaydi, balki madaniyatni idrok etadi, badiiy fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Lingvokulturologik kompetensiyani shakllantirishning amaliy yo'llari mavjud bo'lib, Ona tili ta'limida matn asosida madaniy izohli tahlil, frazeologizmlar va maqollarning madaniy semantik sharhi, milliy obrazlar tizimi bilan ishlash, boshqa madaniyatlardagi ekvivalentlar bilan qiyosiy tahlil, she'riy misollar orqali madaniy ramzlarni ochish kabi metodlar samarali hisoblanadi. Masalan, Muhammad Yusufning:

*“Men dunyoni nima qildim,*

*O'zing yorug' jahonim,*

*O'zim xoqon,*

*O'zim sulton,*

*Sen taxti Sulaymonim,*

*Yolg'izim,*

*Yagonam deymi,*

*Toppingan koshonam deymi,*

*O'zing mening ulug'lardan*

*Ulug'imsan, Vatanim...!”*[3,6-b.] misrasi Vatan tushunchasining faqat geografik hudud emas, balki *ruhiy manzil* ekanini aks ettiradi. Bu lingvokulturologik anglash uchun muhim asosdir.



Lingvokulturologik kompetensiya — bu o'quvchining til birliklarida mujassam bo'lgan madaniy, milliy va ma'naviy qadriyatlarni to'g'ri anglay olishi, ularni sharhlashi hamda nutq amaliyotida o'rinli qo'llay bilishidan iborat ko'p qirrali til tafakkur tizimidir. Mazkur kompetensiyaning shakllanishi o'quvchining til, madaniyat va milliy dunyoqarash o'rtasidagi murakkab bog'lanishlarni idrok etishiga xizmat qiladi.

Ushbu kompetensiya quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

**Til birliklarining madaniy mazmunini anglash ya'ni o'quvchi so'z, ibora va frazeologizmlar orqali berilgan madaniy kodlarni to'g'ri talqin qila olishi** lozim. Masalan, o'zbek tilidagi **“devorning ham qulog'i bor”**, **“oq yo'l”** kabi birliklar xalq tafakkurining asriy tajribasini o'zida mujassam etadi. Bu kabi birliklarning semantik va pragmatik qatlamlarini chuqur anglash tilning madaniy qatlamini ochib beradi.

Shuninigdek, **milliy konseptlarni tahlil qila olish bu** lingvokulturologik kompetensiyaning asosiy nuqtalaridan biri — tilda yashirin holda namoyon bo'ladigan **milliy konseptlarni** ilmiy tahlil qila olishdir. Masalan, **“vatan”**, **“oila”**, **“rizq”**, **“qirq”**, **“barot”**, **“ko'ngil”** kabi konseptlar nafaqat lug'aviy ma'nosi, balki xalqning qadriyat tizimi, ruhiy tafakkuri va tarixiy xotirasi bilan bog'liq. Milliy konseptlar dunyo tavsifining madaniy modelini shakllantiradi hamda o'quvchida milliy istiqbolni anglash qobiliyatini kuchaytiradi.

Bundan tashqari **badiiy matnlardagi obrazli iboralarning madaniy ildizini tushunish ham** Lingvokulturologik kompetensiyaning muhim omili hisoblanadi. Badiiy matnlar madaniy semiotikaning eng boy manbalari sifatida qaraladi. Ulardagi obrazli iboralar, o'xshatishlar, metaforalar va ramzlar muayyan xalqning madaniy tafakkuri, yashash muhiti hamda qadimiy rivoyatlari bilan chambarchas bog'liq. Masalan, **“oydek yorug'”**, **“chamandek gullab-yashnamoq”**, **“qalbida bor”** kabi obrazlar xalq estetikasining va ma'naviy ideallarining in'ikosidir.[4,50-60-b].

Lingvokulturologik kompetensiyaning amaliy jihatlaridan biri — o'quvchining o'z fikri, mulohazasi va munosabatini milliy dunyoqarashga mos tarzda bayon eta olishi. Buning uchun u tilning nafaqat grammatik imkoniyatlarini, balki madaniy-estetik normalarini ham o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Milliy nutqiy odob, urf-odatlariga mos ifoda



shakllari, shaklan muloyim, mazmunan xolis hamda madaniy nutq qurilishi muhim hisoblanadi.

Tilning jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog'liqligi hozirgi zamon tilshunosligining eng muhim tamoyillaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, **lingvokulturologik kompetensiya** va **sotsiokulturologik kompetensiya** o'quvchining tilni chuqur, mazmunan boy hamda ijtimoiy jihatdan mos ravishda qo'llay olishini ta'minlaydigan o'zaro bog'liq ikkita asosiy kompetensiya sifatida namoyon bo'ladi.

Lingvokulturologik kompetensiya o'quvchining **til birliklaridagi madaniy ma'nolarni, milliy konseptlarni, badiiy obrazlar ildizini** anglay olishiga xizmat qilsa, sotsiokulturologik kompetensiya uning **jamiyatdagi muloqot me'yorlari, ijtimoiy rollar, etiket qoidalari, axloqiy me'yorlar** asosida to'g'ri nutqiy harakat qilishi uchun zamin yaratadi.

Ya'ni, birinchisi o'quvchiga **tilning madaniy mazmunini anglashni**, ikkinchisi esa shu mazmunni **ijtimoiy muloqot kontekstida to'g'ri qo'llashni** o'rgatadi. Bu ikki kompetensiya birgalikda tilning ikki asosiy qatlamini — **madaniy (kulturologik)** va **ijtimoiy (sotsiologik)** mohiyatini yoritadi.

O'quvchi til birliklarining madaniy ildizlarini, milliy konseptlar semantikasini, badiiy matnlardagi obrazlarning metaforik asosini chuqur anglagan sari u ijtimoiy vaziyatlarda o'zini ancha samarali tuta oladi.

**Madaniy kodlarni tushungan o'quvchi sotsial vaziyatni to'g'ri baholaydi.** Masalan, "oq yo'l", "ko'ngli keng", "qirq marosimi", "barot kechasi" kabi konseptlar mazmunini anglash o'quvchining jamiyatdagi to'g'ri muloqot strategiyalarini tanlashiga yordam beradi. Shuningdek, **Lingvokulturologik bilimlar jamiyatda hurmat kategoriyalarini aniqlashda asos bo'ladi.** Milliy madaniyatdagi "katta-kichik" tushunchasi yoki "ota-ona hurmati", "mehmonga izzat" qadriyatlarini tushungan o'quvchi nutqda ham mos etik shakllardan foydalanadi.

**Sotsiokulturologik tajriba — lingvokulturologik anglashni mustahkamlaydi.** Bu jarayon o'zaro ta'sirli bo'lib, sotsiokulturologik kompetensiya ham lingvokulturologik kompetensiyaning rivojiga xizmat qiladi. **Jamiyatdagi real nutqiy vaziyatlarni kuzatish madaniy mazmunni teranroq anglashga olib keladi.**





Rol o'yinlari, dialoglar va real vaziyatlar orqali o'quvchi madaniy qadriyatlarning tilga qanday singganini yanada aniqroq ko'radi.

**Ijtimoiy rollarni anglash — madaniy konseptlarga yangi talqinlar beradi.** Masalan, “hurmat”, “izzat”, “or-nomus”, “halollik” kabi konseptlar faqat lug'aviy emas, balki ijtimoiy tajriba orqali ham shakllanadi.

Lingvokulturologik kompetensiya tilning **madaniy-milliy mazmunini** anglatadi. Sotsiokulturologik kompetensiya esa bu mazmunni **ijtimoiy muloqot vaziyatlarida to'g'ri qo'llashni** ta'minlaydi. Shunday qilib, bu ikki kompetensiya birgalikda o'quvchida **madaniy savodli, ijtimoiy mas'uliyatli, nutqan moslashuvchan va milliy-estetik qadriyatlarga hurmatli** kommunikatorni shakllantiradi.

Sotsiokulturologiya — bu tilning jamiyatdagi real qo'llanish mexanizmlarini, nutqiy xatti-harakatlar va ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan bog'liq holda o'rganadigan fan yo'nalishidir. Ushbu yondashuv tilni shunchaki aloqa vositasi sifatida emas, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilmasi, axloqiy me'yorlari, ijtimoiy rollar tizimi va madaniy kodlarini aks ettiruvchi **ijtimoiy hodisa** sifatida talqin qiladi. D.Bayramova ta'kidlaganidek, *“o'quvchi til orqali jamiyatdagi munosabatlar tizimini anglar ekan, u sotsiomadaniy tajribani o'zlashtiradi”* [5,67-b].

Bu esa sotsiokulturologik kompetensiyaning mazmunini keng ma'noda belgilab beradi: o'quvchi tilni qo'llar ekan, faqat kommunikatsiya qilmaydi, balki jamiyatning qadriyatlarini, ijtimoiy chegaralarini, mos nutq shakllarini ham o'zlashtiradi.

Sotsiokulturologik kompetensiyaning shakllanishi o'quvchining jamiyatda nutqiy xulq-atvor me'yorlarini anglashidan tortib, murakkab ijtimoiy vaziyatlarda mos nutq strategiyasini tanlashigacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Mazkur kompetensiya quyidagi tarkibiy jihatlar bilan boyiydi.

O'quvchi muloqot paytida vaziyatning rasmiylik darajasi, suhbatdoshlardagi rol taqsimoti, muloqotning maqsadi va ijtimoiy kontekstni hisobga olgan holda mos nutq shaklini tanlay olishi kerak. Bunda ijtimoiy muhitga xos noverbal signallar (masofa, mimika, ohang) ham muhim ahamiyatga ega va bu bevosita nutqiy vaziyatda o'zini to'g'ri tuta olish imkonini beradi.



**Ijtimoiy munosabatlarda madaniy etiketni qo'llay bilish ya'ni** til jamiyatning axloqiy qadriyatlari va marosimiy madaniyatini aks ettiradi. "Salomlashish", "minnatdorchilik bildirish", "uzr so'rash", "hurmat ko'rsatish" kabi nutqiy etiket shakllarini o'rinli qo'llash ijtimoiy muvozanatni saqlashning asosiy vositasidir.

Bundan tashqari o'zbek milliy muloqot madaniyatida suhbatdoshlarga qarab suhbat shaklini tanlash (siz/sen nisbatlari, murojaat shakllari, yumshoq ohang, rasmiy uslub) ijtimoiy kompetensiyaning asosiy ko'rsatkichlaridan biridir. Ijtimoiy rollarni anglash muloqot samaradorligini oshiradi. Shuningdek, **jamiyatdagi axloqiy me'yorlarni nutqda ifoda eta olish** – o'quvchi jamiyatning an'analari, odob-axloq qoidalari, ijtimoiy me'yorlari til orqali qanday ifodalanganini tahlil qila olishi va nutqda to'g'ri qo'llay bilishi zarurligidan dalolat beradi. Masalan, kamtarlik, adolat, halollik, hurmat tushunchalarining nutqdagi ko'rinishlari milliy mentalitetni namoyon etadi.

O'qitish jarayonida sotsiokulturologik kompetensiyaning dars jarayonida namoyon bo'lishi didaktik faoliyatlar, kommunikativ vaziyatlar va real ijtimoiy muloqot modellaridan foydalaniladi. Xususan, quyidagi metodlar juda samaralidir:

**Holatli muloqot (rol o'yinlari)** – rasmiy uchrashuv, do'stona suhbat, ota-ona bilan muloqot, xizmat ko'rsatish muassasasidagi dialog kabi vaziyatlarni modellashtirish o'quvchilarning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

**Madaniy vaziyatlarga asoslangan dialoglar** – turli madaniyat vakillarining muloqot an'analari qiyosiy o'rganilib, o'quvchi mos nutq shakllarini tanlashni o'rganadi. Bu, ayniqsa, globallashtirish sharoitida muhim.

**Turli ijtimoiy guruh nutqining o'ziga xosligini tahlil qilish** – yoshlar tili, rasmiy uslub, kasbiy jargon, ommaviy axborot vositalari nutqi kabi qatlamlarni solishtirish o'quvchiga jamiyat tilining rang-barangligini tushunishga yordam beradi.

**Ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan mulohazaviy matnlar yozish** – o'quvchi muammoli ijtimoiy mavzular (hurmat-izzat, bag'rikenglik, mas'uliyat, oilaviy qadriyatlar, gender muammolari) yuzasidan matn yozar ekan, o'z ijtimoiy ongini mustahkamlaydi.

Til ta'limida kompetensiyaning shakllantirishning muhim omillaridan biri — **mazmunan boy, lingvomadaniy yukka ega badiiy matnlarni to'g'ri tanlash**dir. Bunday asarlar o'quvchida **milliy dunyoqarash, madaniy kodlarni anglash, lingvokognitiv**





**fikrlash, muloqot kompetensiyasi** singari ko'nikmalarni chuqurlashtiradi. Masalan: A.Qahhor, E.Vohidov, P.Qodirov, A.Oripov kabi ijodkorlarning she'r va hikoyalari tarkibida **madaniy ramzlar** ("nay", "sandiqlar", "do'ppi"), **milliy konseptlar** ("or-nomus", "mehmondo'stlik"), **mental obrazlar** (o'zbekona mehr, kattaga hurmat) kabi qatlamlar mavjud bo'lib, ular til birliklarini milliy madaniyat bilan bog'lash imkonini beradi. **Ushbu matnlar asosida o'quvchilar** leksik birliklarning **madaniy semasini angelaydi**, mazmunni **konseptual maydon** orqali idrok etadi, milliy qadriyatlarni **til orqali talqin qiladi**.

Kompetensiyani rivojlantirishda **interaktiv yondashuvlar** muhim o'rin tutadi. Ular o'quvchini faollikka, mustaqil fikrlashga, madaniy kodlarni sharhlashga undaydi. Xususan, quyidagi metodlar ayniqsa o'z samarasini berib kelmoqda: [6,89-b].

– **"Klaster" metodi** – Konseptlar o'rtasidagi bog'liqlikni grafik tarzda ko'rsatish orqali o'quvchilar matnda yashiringan *madaniy makro va mikro konseptlarni* aniqlaydi.

– **"Fishbone" (Ishikava) metodi** – madaniy hodisa yoki obrazning **sabab-oqibat tizimini** tahlil qilishga yordam beradi. Masalan: "mehmondo'stlik" konsepti asosidagi ijtimoiy omillar.

– **"Conceptual mapping"** – til birliklarini **madaniy kod** bilan bog'lash, semantik maydon yaratish, konseptual xarita tuzish orqali o'quvchi **kognitiv kompetensiyani** rivojlantiradi.

Til kompetensiyasi — faqat grammatik bilim emas, balki **ijtimoiy-madaniy muhit bilan uzviy bog'liq jarayon**. Agar ona tili ta'limi **puxta metodik yondashuv asosida** tashkil etilsa, o'quvchi **milliy o'zligini angelaydi**, madaniy me'yorlarga mos **muloqot olib boradi**, nutqiy madaniyatning **ijtimoiy ahamiyatini chuqur idrok etadi**, tilni **ijtimoiy-madaniy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtiradi**, matnni **konnotativ darajada** anglash imkoniga ega bo'ladi. Shuningdek, maktab muhiti va o'quv jarayonida oila va jamiyatdagi **til amaliyoti**, ijtimoiy qadriyatlar, madaniy tajribalar bilan bog'liq **ko'pvektorli kompetensiya** shakllanadi.

Ona tili ta'limida **lingvokultrologik** va **sotsiokultrologik** kompetensiyalarni shakllantirish — bu o'quvchining faqat grammatik bilim va nutqiy ko'nikmalarni emas, balki **millat ruhiyati, madaniy qadriyatlar, ijtimoiy xulq me'yorlari** va **jamiyatning**



**kommunikativ xususiyatlarini** ham chuqur anglashiga xizmat qiladigan zamonaviy pedagogik yondashuvdir.

Mazkur kompetensiyalarni egallash orqali o'quvchi tilni ma'no, madaniy kontekst, ijtimoiy funksiyalar bilan uyg'un holda idrok etishni o'rganadi. Lingvokulturologik yondashuv o'quvchining **nutqiy faolligini oshiradi, madaniy dunyoqarashini kengaytiradi, konseptual fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, milliy identifikatsiyani mustahkamlaydi.**

Sotsiokulturologik kompetensiya esa o'quvchining **ijtimoiy muloqot madaniyatini** shakllantiradi, **jamiyatdagi o'z rolini to'g'ri anglashiga** yordam beradi, **umuminsoniy qadriyatlarga hurmatini oshiradi, ijtimoiy faol pozitsiyani rivojlantiradi.**

Lingvokulturologik va sotsiokulturologik yondashuvlar asosida o'qigan o'quvchi bilimli **emas**, balki **madaniyatli**, nutqiy savodxon **emas**, balki **kommunikativ jihatdan yetuk**, grammatik qoidalarni yod oluvchi **emas**, balki **tilni ijtimoiy-madaniy vosita sifatida qo'llovchi**, jamiyatdagi o'z o'rnini anglay oladigan, fikrini madaniyatli ifodalay oladigan **yetuk shaxs** sifatida shakllanadi.

Bunday o'qitish modeli o'quvchini tilda yashiringan madaniy ma'nolarni anglaydigan, jamiyat talablarini biladigan, turli kommunikativ vaziyatlarda moslashuvchan muloqot qila oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini his qiladigan kompleks kompetent shaxs darajasiga ko'taradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- [1] Maslova, V.A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. – 12-b.
- [2] Bagayeva, N.A. Til va madaniyat integratsiyasi. – Toshkent: Fan, 2018. – 48-b.
- [3] Muhammad, Y. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2007. – 6-b.
- [4] Yoqubov B. O'zbek badiiy nutqining madaniy zamini. Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2017. 58-60-b.
- [5] Bayramova D. Til va sotsiomadaniy kompetensiya. Buxoro: Buxoro DU nashriyoti, 2021. 67-b.
- [6] Karimov, N. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 89-b.